

**XORIJIY KREDIT LINIYALAR VA ULARDAN FOYDALANISH
SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA ULARDAN FOYDALANISH
SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI**

Misirov Iskandar Abdullayevich

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya: Xorijiy kredit liniyalari va ulardan foydalanish samaradorligini baholash, shuningdek, ulardan foydalanish samaradorligini oshirish yo‘llari iqtisodiy taraqqiyotda muhim o‘rin tutadi. Xorijiy kredit liniyalari mamlakatga iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlash, infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish, sanoatni rivojlantirish va boshqa sohalarda zarur bo‘lgan mablag‘larni taqdim etadi. Shu bilan birga, bu resurslardan samarali foydalanish uchun bir nechta omillarni hisobga olish zarur.

Kalit so‘zlar: Xorijiy kredit liniyalari, iqtisodiy taraqqiyot, samaradorlik, iqtisodiy tizim, sanoat, resurslar.

Abstract: The evaluation of foreign credit lines and the ways to improve their efficiency play a significant role in economic development. Foreign credit lines provide the necessary funds to support economic growth, finance infrastructure projects, develop industries, and other sectors. At the same time, several factors must be considered to ensure the efficient use of these resources.

Keywords: Foreign credit lines, economic development, efficiency, economic system, industry, resources.

Mamlakatimiz moliyaviy taraqqiyotining hozirgi darajasida bizda zamonaviy ish o‘rinlari yaratish, jismoniy shaxslarning mehnat unumdorligini oshirish va mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirish imkoniyati mavjud va buning uchun xalqaro moliyaviy ta’limni turli kompaniyalarga hissa qo‘shish va kreditlash uchun rag‘batlantirish orqali amalga oshiramiz. Bizning asosiy muammolarimizdan biri valyuta kursi xavfidir. Investorlar pul mablag‘larini xorijiy valyutada qo‘yadi va olgan foydasini chet el valyutasida qaytaradi. Bu investorlar foydasini kamaytirishi yoki valyuta kurslarining o‘zgarishi, inflyatsiya va boshqa moliyaviy omillar tufayli investorlar uchun qo‘shimcha risklarni yuzaga keltirishi mumkin.

Hozirgi paytda mamlakatimizda valyuta kursi O‘zbekiston Respublika valyuta birjasidagi savdolar natijalariga ko‘ra har haftaning seshanba kuni e‘lon qilinadi va so‘nggi davrlarda so‘mning dollarga nisbatan kursi sezilarli darajada oshib borish tendensiyasiga egaligini kuzatishimiz mumkin (1-rasm).

18.10.2023 - 18.10.2024

1 oy 6 oy Yil




1-rasm. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida dollar kursining o'zgarish dinamikasi

Ko'rib turganimizdek mamlakatimizda valyuta liberalizatsiyasi o'tkazilgandan so'ng, dollar kursi pasayish tendensiyasiga ega bo'ldi. Eng minimal nuqtaga 2023-yilning 19-sentyabr kuni 1\$=12740 so'mga kelindi. Shundan so'ng, valyuta kursi faqat yuqroiga qarab intilib, 2023-yilning 05-may kuni 1\$=12740 so'm ko'rsatkichiga yetdi. Milliy valyuta qadrsizlanishining asosiy sababi nimada? Asosiy sabab – bu mamalaktda import hajmining yuqoriligi va eksportning nisbatan kamligidir.

Ajratilgan va so'ndirilgan kreditlar dinamikasi



Kredit portfeli dinamikasi



2-rasm. Ajratilgan va so'ndirilgan kreditlar dinamikasi

2022 yil uchun ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, uy xo'jaliklari kreditlari ulushi 2 punktga o'sib, 55 foizga yetdi. Shu bilan birga, tashqi kreditlar ulushi 2 punktga kamayib, barcha kreditlarning 45 foizini tashkil etdi. Ushbu o'zgarish kredit portfelining o'zgaruvchan pul tuzilishini aks ettiradi, mahalliy kreditlarning ko'payishi iqtisodiyotda mahalliy pulning muhim rolini aks ettiradi.

Ajratilgan kreditlar qoldig'i iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha quyidagi o'zgarishlarni ko'rsatadi:

- Sanoat sohasida kreditlar 10,7 foizga oshib, 140,2 trillion so'mni tashkil etdi.
- Qishloq xo'jaligi sohasida ajratilgan kreditlar 12,3 foizga oshib, 47,3 trillion so'mga yetdi.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

- Transport va kommunikatsiya sohasida kreditlar 15,7 foizga oshib, 34,3 trillion so'mni tashkil qildi.
- Savdo va umumiy ovqatlanish sohasida kreditlar 12,5 foizga oshib, 32,5 trillion so'mga yetdi.
- Qurilish sohasida kreditlar 18 foizga oshib, 12,3 trillion so'mni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkichlar, iqtisodiyotning muhim tarmoqlariga kredit ajratishning oshganligini va ular orqali sohalarni rivojlantirishga bo'lgan talabning ortganini ko'rsatadi..

Yuqoridagi raqamlardan bilib olish mumkinki, talab yuqori va taklif past bo'lgan joyda tovarning narxi oshishi odatiy xol. Bu yerda esa valyuta tovar vazifasini bajarmoqda va taklif, ya'ni sotiluvchi xorijiy valyuta miqdori oshmaguncha milliy valyuta qadri oshmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, 05.11.2019 yildagi O'RQ-580-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni, 02.09.2017 yildagi PF-5177-son
3. Krugman, P. R., & Obstfeld, M. (2009). International Economics: Theory and Policy (8th ed.). Pearson.
4. Mishkin, F. S. (2018). The Economics of Money, Banking, and Financial Markets (12th ed.). Pearson.